

BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI VA O'QISH DARSLARIDA 5E MODELINING ELABORATE (KENGAYTIRISH) BOSQICHINI QO'LLASH

L.B.Irisova

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

Ta'lismi va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang'ich ta'lismi) mutaxassisligi

1-kurs magistranti

E-mail: lobarislomova05@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida 5E modelining Elaborate (kengaytirish) bosqichini qo'llash, uning foydalari, afzallikkali haqida gap ketgan. Bu bosqichning qonun-qoidalari, qanday qo'llanilishi haqida ma'lumot berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: 5E modeli, elaborate, "Narda", "Uch qushcha uchaqol", PISA, PIRLS, 4K modeli, innovatsiya.

Аннотация. В данной статье обсуждается применение этапа Elaborate (расширение) модели 5E на уроках родного языка и чтения в начальных классах, его преимущества и преимущества. Предоставлена информация о правилах этого этапа и о том, как они применяются.

Ключевые слова: модель 5E, elaborate, "Нарда," "Уч қуища учиқол," PISA, PIRLS, модель 4K, инновация.

Abstract. This article discusses the application of the Elaborate (expansion) stage of the 5E model in primary school native language and reading lessons, its benefits, and advantages. Information is provided on the rules of this stage and how it is applied.

Keywords: 5E model, elaborate, "Narda," "Three birds fly," PISA, PIRLS, 4K model, innovation.

Boshlang'ich ta'lismi umumiy o'rta ta'limgardagi asosiy poydevori, o'quvchilarining kelajakda komil inson bo'lib voyaga yetishini ta'minlovchi muhim bosqich hisoblanadi. Boshlang'ich sinflar o'qituvchisining faoliyati eng avvalo, o'quvchilarni ta'lismi muhitiga moslashtirish, ularda o'qish jarayoniga qiziqish hamda zamonaviy

o'quvchilarga zarur bo'lgan xususiyatlarni shakllantirish, ta'lif jarayonining o'ziga xos jihatlari bilan tanishtirishdan iborat.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivlarini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Motiv o'quvchilarni bilim olishga undaydigan kuchdir. Interfaol metodlar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Ta'lif jarayonida ko'proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson hamda vaqt kam sarflanadigan o'yin mashqlardan foydalanib, darslar o'tish yaxshi samara beradi. Ko'proq atrof muhit bilan bog'lab o'tilgan darslar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon qilish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi. Biz oldingi maqolalarimizda o'quvchilarda bunday xususiyatlarni shakllantirish uchun darslarda 5E modelini qo'llashni joriy qilgandik va uning bosqichlari qanday qo'llanilishiga birma-bir izohlar berib bormoqdamiz. Bu maqolamizda Elaborate bosqichini qanday qo'llash haqida so'z boradi.

Elaborate (kengaytirish). O'quvchilarga yangi bilimlarni yanada chuqurroq o'rghanish imkoniyatini berish. Mazkur bosqichda bolalar o'z bilimlarini turli vaziyatlarda qo'llashadi, masalan, o'tilgan mavzuni boshqa fanlarga integratsiya qilish, olgan bilimlari asosida mashqlar ishslash, yangi vaziyatlarga moslashtirish, boshqa mavzular bilan bog'lash yoki yangilik yaratish kabilarni bajaradi. Bunda o'quvchilarning kreativligi namoyon bo'ladi, jamoada ishslash ko'nikmasi shakllanadi, mustaqil fikrlash qobiliyati o'sadi, dars jarayoni qiziqarli kechadi, o'quvchilarning diqqati oshadi, olgan bilimlari mustahkamlanadi. Interfaol metodlar, turli xil metodik o'yinlar, amaliy ishlar aynan shu bosqichda amalga oshadi.

Interfaol metod – ta'lif jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali bolalarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Bu bosqich ichiga 4k modelini, PISA, PIRLS testlarini ham kiritib integratsiya jarayonini hosil qilish mumkin. Misol uchun, boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida "Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya" metodik o'yinini qo'llash orqali o'quvchilarda olgan bilimlarini mustahkamlash va shu bilimi asosida hayotiy jarayonlarga bog'lash ko'nikmasi, yaratuvchilik qobiliyati, ong ustunligi, tanqidiy va tahliliy fikrlash kabilar shakllanadi. Bu metodik o'yinda o'qituvchi

mavzuni tushuntirib bo'lganidan so'ng, bolalarga shu mavzuga doir biror fikr bildirishi yoki uning kamchilik va ustun tomonlarini aytib o'tishini talab etadi.

Bu bosqichda turli xil metodik o'yinlarni qo'llash orqali ko'zlangan maqsadlarga erishish oson va qulay. Misol uchun, "Narda" o'yini. Bunda o'quvchilar ikki guruhga bo'lingan bo'lib, har bir guruhga bittadan narda toshi beriladi. Guruhlardan bittadan ishtirokchilar chiqib, qo'llaridagi narda toshini yerga tashlaydi va qancha qadam yurish kerakligini aniqlaydilar hamda har bir qadam uchun shu o'quvchi tomonidan mavzuga doir bittadan ma'lumot aytildi, agarda ma'lumot keltirilmasa, qadam tashlanmaydi. O'yin shu tariqa guruh a'zolari ishtiroki orqali davom etadi. Doskaga qadamlar yordamida manzilga elituvchi yo'l ko'rsatilgan surat chizilgan bo'lib, qadamlar sonini aniqlash orqali qaysi guruh g'alaba qozonganligi ko'rsatiladi. Bu o'yin o'quvchilar faolligini oshiradi, hammaning ishtirokini ta'minlaydi, mavzuni mustahkamlash uchun kuchli qurol vazifasini bajaradi, ularning qiziqishlarini uyg'otadi, diqqatini jamlaydi, nutqini o'stiradi, fikrlay olish qobiliyatini shakllantiradi, guruh bo'lib ishlashni ta'minlaydi.

"Uch qushcha uchaqol" o'yini

Bunda o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. Ikki jamoa uchun oyog'iga bir nechta iplar bog'langan, qog'ozdan yasalgan ikkita qushcha beriladi. Jamoa qatnashchilari u iplarni ushlab turadilar. Qachonki har bir o'quvchi o'ziga o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob berishsa, qushcha oyog'idagi bir ipni yechishga muvaffaq bo'lgan hisoblanadi. O'qituvchi savollarni mantiqiy, tanqidiy, tahliliy jihatdan fikrlashga yo'naltirilgan savollar berib boradi. O'yin qushchalar iplardan xalos bo'lguncha o'ynaladi va ular uchiriladi. Bu o'yin bolalarda darsga bo'lgan qiziqishni oshiradi, mantiqiy hamda tanqidiy fikrlashini o'stiradi, mavzuni mustahkamlashga va ularda ko'nikma hosil bo'lishiga yordam beradi, bir maqsad yo'lida guruh bo'lib ishlashga undaydi, hamma o'quvchilar ishtirokini ta'minlaydi.

Elaborate bosqichida o'qituvchidan kuchli metod sohibi bo'lism, o'quvchilardan esa jismoniy hamda aqliy faollik talab etiladi. Bunda asosiy narsa o'rganilgan bilimlarni chuqurlashtirish hamda ularni amalda qo'llash imkoniyatini yaratish, yangi bilimlarni turli ko'rinishda qo'llash orqali ularni mustahkamlash, o'rganilgan bilimga asoslangan mashqlarni yechish, qo'shimcha topshiriqlar bajarish, real hayotga oid vaziyatlar bilan bog'liq topshiriqlar berish, yangiliklar yaratish (masalan, o'qish savodxonligi darsida ijodkorlik qilish) hisoblanadi.

Xulosa zamonaviy boshlang'ich ta'lif uchun istiqbolli ustuvor yo'nalishlardan biri bu o'quvchilarning yetuk shaxs sifatida rivojlanishi, jamiyat orasida o'z o'rnnini topa olishi, erkin fikr bildirishi hamda milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalanishi asosidan iboratdir. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari umuman olganda barcha o'qituvchilar uchun 5E modelini o'rganishlari va amaliyotga joriy etishlarini tavsiya etaman. Zotan, rivojlanayotgan davlatda rivojlantiruvchi innovatsiyalardan foydalanish barchamiz uchun samaralidir. Bu model o'qituvchilarning malaka oshirish kurslarida ham qo'llansa, pedagoglarda yangi qirralarini ochishga yordam beradi, o'zlarining kamchiliklarini to'ldirib borish jarayonini hosil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Marxabxon Erkinjon qizi Xolmatova, Boshlang'ich sinflarda ta'lif sifatini oshirish (maqola). "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal.
2. Jumaniyozova Manzura, Interfaol metodlarning ta'lif va tarbiya jarayonidagi o'rni va imkoniyatlari (maqola).
3. Norbekova Zebo, O'ralova Mehrinso. O'zbekistonda zamonaviy ta'lifni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari (maqola). "Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya" nomli ilmiy, masofaviy onlayn konferensiya.
4. www.google.com
5. www.edutopia.org